Asakabank

**“Asakabank” aksiyadorlik jamiyati Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi**

**4-SONLI BAYONNOMASI**

Toshkent shahri, Toshkent-siti, Asaka Tower, 2026-yil 5-noyabr, soat: 15.00.

**Ishtirok etgan aksiyadorlar:**

J.A.Abdushukurov - O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi
(Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining 2023-yil 24-avgustdagi OYU-07/08-739-son ishonchnomasi asosida Jamg‘armaga tegishli aksiya paketlari bo‘yicha aksiyador vakolatlarini amalga oshirish va boshqarish funksiyalari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligiga berilgan)
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi. (63 930 224 604 dona oddiy aksiya – 99,35% ovoz)

B.A.Axadov - «O‘zagrosug‘urta» AJ (34 790 745 dona oddiy aksiya – 0,05% ovoz);

**Kengash a’zosi:**

J.A.Abdushukurov - Kengash a’zosi – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat aktivlarini xususiylashtirish va transformatsiya qilish departamenti direktori

**Bank Boshqaruvi a’zolari va xodimlari:**

S.U.Zakirov - Boshqaruv Raisi v.v.b.

T.I.Isroilov - Korporativ munosabatlar xizmati boshlig‘i

**Sanoq komissiyasi:**

T.I.Isroilov - Korporativ munosabatlar xizmati boshlig‘i

L.R.Gafurova - Korporativ munosabatlar xizmati katta koordinatori

A.Sh.Rasulov - Korporativ munosabatlar xizmati koordinatori

Yig‘ilish ochilishidan oldin, Korporativ munosabatlar xizmati boshlig‘i T.I.Isroilov chiqish qilib, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 58-moddasiga muvofiq, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini jamiyat kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko‘ra bo‘lmagan taqdirda esa, jamiyat kuzatuv kengashining a’zolaridan biri olib borishi belgilanganligini aytib o‘tdi.

Shundan so‘ng, Bank Kengashi a’zosi J.A.Abdushukurov – yig‘ilish raisi sifatida, Bankning Korporativ munosabatlar xizmati boshlig‘i T.I.Isroilovni – yig‘ilish kotibi etib saylash masalasi ovozga qo‘yildi.

Shuningdek, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 66-moddasiga muvofiq aksiyadorlar Sanoq komissiyasini saylash masalasini ham ko‘rib chiqdilar va quyidagi 3 nafar nomzoddan iborat Sanoq komissiyasini saylash masalasi ovozga qo‘yildi:

T.I.Isroilov

L.R.Gafurova

A.Sh.Rasulov

Yig‘ilishga raislik qiluvchi J.A.Abdushukurov yig‘ilganlarni aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishi kun tartibi bilan tanishtirdi va yig‘ilish o‘tkazish uchun quyidagi reglamentni tasdiqlashni taklif qildi:

• ma’ruzalar - 5 daqiqagacha;

• savollarga javoblar - 3 daqiqagacha;

• muhokamalarda chiqish qilish - 3 daqiqagacha.

Ovozga qo‘yilgan nomzodlar hamda yig‘ilish reglamenti bir ovozdan ma’qullandi.

Sanoq komissiyasi raisi T.Isroilov aksiyadorlarga quyidagilarni ma’lum qildi: Bank aksiyadorlarining 2026-yil 30-oktabr holatiga shakllantirilgan reyestriga muvofiq yig‘ilishda 6 nafar aksiyadorga tegishli 64 346 266 244 dona ovoz beruvchi aksiyalar ishtirok etishi mumkin edi. Ro‘yxatga olish tugaguniga qadar 63 965 015 349 dona yoki 99,4 foiz ovoz beruvchi aksiyalarga egalik qiluvchi 2 nafar aksiyador ro‘yxatdan o‘tdi. O’zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 68-moddasiga muvofiq, agar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tugallangan paytda jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko‘proq ovoziga ega bo‘lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo‘ladi. Shunga asosan umumiy yig‘ilishni o‘tkazish uchun kvorum mavjud (Sanoq komissiyasining bayonnomasi).

Yig‘ilishga raislik qiluvchi J.A.Abdushukurov yig‘ilganlarni aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishi kun tartibi bilan tanishtirdi.

## KUN TARTIBI

1. “Asakabank” AJ Boshqaruv Raisini tayinlash masalasi bo‘yicha Bank Kengashining tavsiyalarini ko‘rib chiqish;

2. “Asakabank” AJ tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

**1. “Asakabank” AJ Boshqaruv Raisini tayinlash masalasi bo‘yicha Bank Kengashining tavsiyalarini ko‘rib chiqish.**

Kun tartibidagi birinchi masala bo‘yicha Korporativ munosabatlar xizmati boshlig‘i T.I.Isroilov so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2026-yil 12-oktabrdagi 02/29-40/1801-sonli xati hamda “Asakabank” AJ Kuzatuv kengashining 2026-yil 14-oktabrdagi 40-son bayonnomasiga (1-ilova) muvofiq, Irakli Elashvili nomzodini Bank Boshqaruvi raisi lavozimiga tayinlash masalasi ko‘rib chiqilganligini ma’lum qildi.

Shuningdek, Kuzatuv kengashi tomonidan nomzod bilan suhbat o‘tkazilgani, uning Bankni O‘zbekistonning yetakchi, barqaror va daromadli universal bankiga aylantirish, biznes va aholi iqtisodiy o‘sishiga ko‘maklashish hamda Bankni xususiylashtirishga tayyorlashga qaratilgan strategik qarashlari tinglangani qayd etildi.

Kuzatuv kengashining 2026-yil 14-oktabrdagi 40-son bayonnomasi bilan Irakli Elashvili nomzodi “Asakabank” AJ Boshqaruvi raisi lavozimiga tayinlash uchun ma’qullangan va uni mazkur lavozimga tayinlash bo‘yicha Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga tavsiya kiritilgan.

Bank Boshqaruvi raisi lavozimiga nomzod I. Elashvili uchun vakolat muddati (3 yil), sinov muddati (6 oy), funksional majburiyatlari va javobgarligi, belgilangan va o‘zgaruvchan ish haqi (KPI) shartlari, ijtimoiy paket, Kuzatuv kengashi oldidagi hisobdorlik tartibi, mehnat munosabatlarini muddatidan oldin bekor qilish asoslari, shuningdek, maxfiylikka rioya qilish va raqobat faoliyatini cheklash shartlarini belgilovchi mehnat shartnomasi loyihasi tayyorlangan (2-ilova).

Yuqoridagilar eshitilgandan so‘ng, Aksiyadorlar tomonidan mazkur masala atroflicha muhokama qilindi. Muhokamadan so‘ng, yig‘ilishga raislik qiluvchi J.A.Abdushukurov, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-martdagi O‘RQ-821-sonli “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonuni 45-moddasi talablarini inobatga olib, kun tartibidagi mazkur masalani ovozga qo‘yishni taklif qildi.

Ovoz berish natijalari:
**Rozi:** 63 965 015 349 (100 foiz).
**Betaraf:** yo‘q
**Qarshi:** yo‘q

**Qaror qabul qilindi:**

1. Irakli Elashvili “Asakabank” AJ Boshqaruvi raisi lavozimiga 3 (uch) yil muddatga, 6 oylik sinov muddati bilan tayinlansin.

2. “Asakabank” AJ va Irakli Elashvili o‘rtasida tuziladigan mehnat shartnomasining asosiy shartlari Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga taqdim etilgan mehnat shartnomasi loyihasi va uning ilovalari 2-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. “Asakabank” AJ Kuzatuv kengashi raisi Osipyan Ashot Feliksovichga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq zarur kelishuvlar va ruxsatnomalar olinganidan so‘ng Bank nomidan Irakli Elashvili bilan mehnat shartnomasini imzolash vakolati berilsin.

4. Irakli Elashvili O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy roziligi olinganidan, zarur ruxsat beruvchi hujjatlar (agar talab etilsa) rasmiylashtirilganidan hamda mehnat shartnomasi imzolanganidan so‘ng Boshqaruv raisi lavozimidagi vazifalarini bajarishga kirishishi belgilansin.

5. Sinov muddati yakunlari bo‘yicha Irakli Elashvilining faoliyati natijalarini mehnat shartnomasining tegishli ilovasida nazarda tutilgan mezonlar va ko‘rsatkichlar asosida baholash “Asakabank” AJ Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilsin.

**2. “Asakabank” AJ tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.**

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo‘yicha Bank Boshqaruv Raisi v.v.b. S.U.Zakirov so‘zga chiqib, “Asakabank” AJ Kuzatuv kengashining 2026-yil 14-oktabrdagi 40-son bayonnomasiga muvofiq, Bankning korporativ biznes yo‘nalishini kuchaytirish, ushbu yo‘nalishni boshqarish samaradorligini oshirish va belgilangan biznes ko‘rsatkichlariga erishishni ta’minlash maqsadida Bank tashkiliy tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritish masalasi ko‘rib chiqilganligini ma’lum qildi.

Xususan, korporativ biznes yo‘nalishini samarali boshqarish, korporativ mijozlar portfelini rivojlantirish, operatsiyalar hajmini oshirish, daromadlilikni yaxshilash hamda belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida Bank Boshqaruvi raisiga bevosita bo‘ysunuvchi korporativ biznes bo‘yicha boshqaruvchi direktor lavozimini joriy etish taklif etilgan.

Shuningdek, Kuzatuv kengashining 2026-yil 17-sentabrdagi 37-son bayonnomasiga muvofiq, Bankning Legacy Bank yo‘nalishi bo‘yicha tashkiliy tuzilmasi ma’qullangan va uni Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga tasdiqlash uchun kiritish tavsiya etilganligi qayd etildi.

Legacy Bank tashkiliy tuzilmasida quyidagi to‘rtta asosiy yo‘nalish nazarda tutilgan:

- Muammoli loyihalarni sog‘lomlashtirish va kuzatib borish departamenti;
- Yuridik kuzatuv departamenti;
- Mulkni boshqarish va realizatsiya qilish departamenti;
- Tahlil va monitoring markazi.

Yuqoridagilar eshitilgandan so‘ng, Aksiyadorlar tomonidan mazkur masala atroflicha muhokama qilindi. Muhokama davomida Bank Boshqaruvining yangi Raisi tasdiqlanganligi munosabati bilan unga taklif etilgan tashkiliy tuzilma bilan tanishish, uni ko‘rib chiqish hamda Bankni kelgusida rivojlantirish va boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha o‘z qarashlari va takliflarini inobatga olgan holda qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini berish maqsadga muvofiqligi ta’kidlandi.

Muhokamadan so‘ng, yig‘ilishga raislik qiluvchi J.A.Abdushukurov taqdim etilgan tashkiliy tuzilmani ma’lumot uchun qabul qilish hamda Bankning yangilangan tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi ko‘rib chiqishiga kiritish yuzasidan topshiriq berishni taklif etdi..

Ovoz berish natijalari:
**Rozi:** 63 965 015 349 (100 foiz).
**Betaraf:** yo‘q
**Qarshi:** yo‘q

**Qaror qabul qilindi:**

1. «Asakabank» AJning taqdim etilgan tashkiliy tuzilmasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bank Kengashiga Boshqaruv Raisining takliflarini inobatga olgan holda tashkiliy tuzilmani uch oy muddatda muhokama qilish hamda ishlab chiqilgan Bankning yangilangan tashkiliy tuzilmasini belgilangan tartibda tasdiqlash uchun Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi ko‘rib chiqishiga kiritish topshirilsin.

*Umumiy yig‘ilish bayonnomasi 2026-yil 13 -noyabrda 2 (ikki) nusxada imzolandi.*

**Yig‘ilish raisi** **J.A.Abdushukurov**

**Yig‘ilish kotibi** **T.I.Isroilov**